

## Yaponiyada istiqomat qiluvchi Chet ellik fuqarolar diqqatiga

2012 yil 9 iyuldan boshlab

Chet ellik fuqarolarni ro‘yxatga olishning yangi boshqaruv tizimiga asoslangan holda, “Yashovchilik kartochkasi” (在留カード) joriy qilinadi.

(Hozirgacha bo‘lgan Chet elliklarni ro‘yxatga olish tizimi (外国人登録制度) bekor qilinadi.)

### “Yashovchilik kartochkasi” haqida

- Kimlarga beriladi: Yaponiyada “3 oy”dan ortiq muddat yashash uchun huquqi bor shaxslarga beriladi.
  - “Qisqa muddatlik viza” bilan kelgan shaxslarga, “Diplomat” va “Rasmiy” viza bilan kelgan shaxslarga “Yashovchilik kartochkasi” berilmaydi.
  - “Maxsus doimiy yashovchi” (特別永住者) shaxslarga “Yashovchilik kartochkasi”ning o‘rniga “Maxsus doimiy yashovchilik guvohnomasi” (特別永住者証明書) beriladi.
- Kartochkada ko‘rsatiladigan ma’lumotlar:
 

Rasm, ism, fuqarolik, tug‘ilgan sana, jins, viza turi, yashash muddati, ishlash uchun ruxsat bor yoki yo‘qligi ko‘rsatiladi.

### Yaroqlilik muddati:

	16 yoshdan kattalar	16 yoshga to‘lmaganlar
Doimiy yashovchilar	Berilgan kundan boshlab 7 yil	16 yoshga to‘lish kuniga qadar
Doimiy yashovchilardan boshqalar	Yashash muddati tugaguniga qadar	Yashash muddati tugaguniga qadar yoki 16 yoshga to‘lish kuniga qadar (qaysi biri birinchi kelsa)

- Beriladigan joy:
  - Har bir hududdagi immigratsiya idorasida. (Narita, Haneda, Chubu, Kansai aeroportlarida 2012 yil 9 iyuldan so‘ng Yaponiyaga o‘rta va uzoq muddatli viza bilan kelgan shaxslarga Yaponiyaga kirish vaqtida “Yashovchilik kartochkasi” beriladi. Lekin, yuqorida ko‘rsatilmagan aeroportlardan kirib kelgan chet elliklar uchun “Yashovchilik kartochkasi” pochta orqali jo‘natiladi. To‘liq ma’lumotlar uchun hududlardagi immigratsiya idoralariga murojaat qiling.)
- Hozirgacha ishlatilib kelingan “Chet ellik fuqarolarning ro‘yxatdan o‘tganlik guvohnomasi” (外国人登録証明書)ni “Yashovchilik kartochkasi” (在留カード)ga almashtirish vaqti:
  - Yangi “Yashovchilik kartochkasi” berilguniga qadar, ma’lum muddat immigratsiya idorasi va hududlardagi rasmiy protseduralarda “Chet ellik fuqarolarning ro‘yxatdan o‘tganlik guvohnomasi” “Yashovchilik kartochkasi” o‘rnida qabul qilinadi. Shuning uchun zudlik bilan “Yashovchilik kartochkasi”ga almashtirish zaruriyati yo‘q.

- Yangi “Yashovchilik kartochkasi”, immigratsiya idorasida yashash muddatini choʻzdirish va boshqa vaqtlarda beriladi.
- 16 yoshdan katta doimiy yashovchi shaxslar 2015 yil 8 iyulga qadar\*, 16 yoshga toʻlmagan doimiy yashovchilar esa, 2015 yil 8 iyulga qadar yoki 16 yoshga toʻlish kuniga qadar (qaysi biri birinchi kelsa) “Yashovchilik kartochkasi”ga almashitirishlari shart.

\*Yashash muddati 4 yoki 5 yillik “Maxsus faoliyat” viza turiga ega boʻlgan shaxslar ham 2015 yil 8 iyulga qadar “Yashovchilik kartochkasi”ga almashitirishlari shart.

● Qulayligi:

- Yaponiyadan chiqib ketsangiz va viza muddatingiz tugaguniga qadar 1 yil ichida Yaponiyaga yana qaytib kirish uchun qonun boʻyicha “Yaponiyaga qaytib kirish uchun ruxsat” (再入国許可) olishingiz shart emas. Bu tizim “Maxsus Yaponiyaga qaytib kirish uchun ruxsat” (みなし再入国許可) deb ataladi. Lekin vizangizning muddati tugaguniga qadar Yaponiyaga qaytib kelmasangiz vizangiz kuyadi. Yodingizda saqlang, viza muddatini chet elda choʻzdirish mumkin emas.

\*“Maxsus doimiy yashovchi” (特別永住者) shaxslar 2 yil ichida Yaponiyaga qaytib kirishlari shart.

**Fuqaro maʼlumotnomasi (住民票) haqida**

“Yashovchilik kartochkasi” va “Maxsus doimiy yashovchilik guvohnomasi”ni olish huquqiga ega shaxslar “Fuqaro maʼlumotnomasi” (住民票)ni oʻzlari yashab turgan hududdan olishlari mumkin. Chet ellik fuqarolar ham “Fuqaro maʼlumotnomasi”ni Yaponlar bilan bir xil tartibda oladilar.

- “Fuqaro maʼlumotnomasi”da koʻrsatiladigan maʼlumotlar:

Chet ellik fuqarolarning “Fuqaro maʼlumotnomasi”da shaxsning ismi, tugʻilgan sanasi, jinsi, yashash joyining manzili va chet ellik fuqarolarning maʼlumoti sifatida fuqarolik, viza turi, viza muddati koʻrsatiladi.

- “Fuqaro maʼlumotnomasi”ning nusxasini olish haqida:

Yaponlar bilan bir xil tartibda har bir hududning hokimiyat idoralaridan “Fuqaro maʼlumotnomasi”ning nusxasi (住民票の写し、住民票記載事項証明書)ni olishingiz mumkin.

\*Yashovchilarning asosiy roʻyxatga olish tizimi haqidagi toʻliq maʼlumotlarni quyidagi saytda koʻrishingiz mumkin.

[http://www.soumu.go.jp/main\\_sosiki/jichi\\_gyousei/c-gyousei/zairyu.html](http://www.soumu.go.jp/main_sosiki/jichi_gyousei/c-gyousei/zairyu.html)

**Bildirish xati (届出) va arizalar haqida (rasmiyatchilik)**

Bildirish xati (届出) yoki ariza kerak boʻlganda	Hujjatlar qabul qilinadigan joy
<p>1) Yangi manzilga koʻchganingizda yoki boshqa turar manzilingizni oʻzgartirganingizda</p> <p>(Yangi manzilga koʻchib kirganingiz haqida hujjat (転入届) *, Boshqa manzilga koʻchganingiz haqida hujjat (転居届) *, Bir manzildan chiqib ketishingiz haqida hujjat (転出届) **)</p> <p>* “Yashovchilik kartochkasi”, “Maxsus doimiy yashovchilik guvohnomasi” (yoki “Chet ellik fuqarolarning roʻyxatdan oʻtganlik guvohnomasi”)dan birini olib kelishingiz kerak.</p> <p>**Boshqa shahar yoki qishloqqa manzilingizni oʻzgartirayotgan</p>	<p>Har bir hududning hokimiyat idorasi</p>

vaqtingizda, hozirgacha yashab kelgan hududingizning hokimiyat idorasida manzildan chiqib ketayotganligingiz haqidagi arizani to'ldirishingiz kerak.	
2) Ism, fuqarolikni o'zgartirayotgan vaqtingizda	Hududlarning immigratsiya idorasi
3) "Yashovchilik kartochkasi"ni yo'qotgan vaqtingizda yoki ishlatib bo'lmaydigan darajadagi holatga kelganda (kir bo'lganda)	
4) Doimiy yashovchilar • 16yoshga to'lmagan shaxslar: • "Yashovchilik kartochkasi"ning muddati tugaganda	
5) Faoliyat vizasi bor shaxslar (ma'lum bir qismidan tashqari), Chet ellik talabalar va malaka oshiruvchilar (研修生): • Ish joyi va o'qish joyi o'zgartirganda, ish va o'qish joyining nomi yoki manzili o'zgartirganda, firma ish faoliyatini tugatganda, ish joyingizning shartnoma muddati tugaganda, yangi shartnoma tuzilganda	Bildirish xatlari yoki kerakli hujjatlarni hududlardagi immigratsiya idorasiga olib kelishingiz kerak yoki Tokyo immigratsiya idorasiga pochta orqali jo'natishingiz kerak.
6) Turmush o'rtog' sifatida "oilaviy vizasi", "Aniq faoliyat vizasi (C)" (特定活動 (ハ)), "Yaponiyalikning turmush o'rtog'i yoki bolasi" va "doimiy yashovchining turmush o'rtog'i yoki bolasi" kabi vizasi bor shaxslar: • Turmush o'rtog'i bilan ajrashganda yoki turmush o'rtog'i olamdan o'tganda	

#### Chet tillarida quyidagi idoralarga aloqa qiling.

<ul style="list-style-type: none"> <li>● <b>Chet elliklar uchun ma'lumot bosh markazi</b> Dushanba~Juma / 8:30~17:15 Tel: 0570-013904 (IP Tel・PHS ・Chet eldan 03-5796-7112)</li> </ul>	<p>Ingliz tili, xitoy tili, koreys tili, ispan tili, portugal tili</p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>● <b>"One-stop" maslahatlar bosh markazi</b> Dushanba~Juma / 9:00~16:00 Chet elliklar uchun maslahatlar bosh markazi (Shinjuku): 03-3202-5535 Chet elliklar uchun Saitama maslahatlar bosh markazi: 048-833-3296 "One-stop" Hamamatsu Chet elliklarni qo'llab quvvatlash bosh markazi: 053-458-1510 HP: <a href="http://www.immi-moj.go.jp/info/index.html">http://www.immi-moj.go.jp/info/index.html</a></li> </ul>	<p>Kelgan mehmonlarga va qo'ng'iroqlarga faqatgina yapon tilida emas, balki quyidagi chet tillarida ham hizmat ko'rsatiladi. Haftaning kunlariga qarab hizmat ko'rsatiladigan chet tillari o'zgarib turadi. Bu ma'lumotlarni internet saytimizdan tekshirishingiz mumkin.</p> <p><u>Shinjuku</u>: Ingliz tili, xitoy tili, ispan tili, portugal tili, bengal tili, vetnam tili, indonez tili</p> <p><u>Saitama</u>: Ingliz tili, portugal tili, ispan tili, xitoy tili, koreys tili, filipin tili (tagalog tili), tai tili, vetnam tili</p> <p><u>Hamamatsu</u>: Ingliz tili, ispan tili, xitoy tili, filipin tili (tagalog tili)</p>

Adliya vazirligining immigratsiya bo'limi (Chet elliklarni ro'yxatga olishning yangi boshqaruv tizimi haqida): [http://www.immi-moj.go.jp/newimmiaact\\_1/index.html](http://www.immi-moj.go.jp/newimmiaact_1/index.html)

\*Ingliz tili, xitoy tili, koreys tili, ispan tili va portugal tillarida o'qishingiz mumkin.

Tarjima hamkori: Tokyo Davlat chet tillar Universiteti